



HISTORICAL, SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF TOPONAMES OF THE SIRDARYO REGION

Kenjayeva Iroda Alisherovna

Gulistan State University. 120100. Syrdarya region,
Gulistan city, 4th district

E-mail: kenjayeva88iroda@gmail.com

Bolibekov Alisher Abdusalomovich

Teacher of Gulistan State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15524808>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2025

Accepted: 25th May 2025

Online: 26th May 2025

KEYWORDS

Word, suffix, toponym,
dictionary meaning, word-
forming suffixes.

ABSTRACT

The article analyzes the composition of place names belonging to the Syrdarya region. The influence of suffixes in the formation of toponyms of the Syrdarya region, in particular, the role and importance of word-forming suffixes and their dictionary meanings are discussed. The explanatory dictionary of toponyms of Syrdarya region served as the main source of the article.

ИСТОРИЧЕСКОЕ, НАУЧНОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ТОПОНИМОВ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Кенджаева Ирода Алишеровна

Гулистанский государственный университет. 120100.

Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-й микрорайон

Болибеков Алишер Абдусаломович

Преподаватель Гулистанского государственного педагогического института

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15524808>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2025

Accepted: 25th May 2025

Online: 26th May 2025

KEYWORDS

Слово, суффикс,
топоним, словарное
значение,
словообразовательные
суффиксы.

ABSTRACT

В статье анализируется состав топонимов, относящихся к Сырдарьинской области. Обсуждается влияние суффиксов на формирование топонимов Сырдарьинской области, в частности, роль и значение словообразовательных суффиксов, их словарные значения. Основные источники статьи послужил толковый словарь топонимов Сырдарьинской области.

SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARINING SHAKLLANISHINING TARIXIY- ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

Kenjayeva Iroda Alisherovna

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: kenjayeva88iroda@gmail.com

Bolibekov Alisher Abdusalomovich

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15524808>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 20th May 2025

Accepted: 25th May 2025

Online: 26th May 2025

KEYWORDS

So'z, qo'shimcha, toponim, lug'aviy ma'no, so'z yasovchi qo'shimchalar.

Maqolada Sirdaryo viloyatiga qarashli bo'lgan joy nomlari yasash jihatidan tahlil qilingan. Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanishida qo'shimchalarning ta'siri, xususan, so'z yasovchi qo'shimchalarning o'rni va ahamiyati, ularning lug'aviy ma'nolari haqida fikr yuritiladi. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati maqolaning asosiy manbaasi sifatida xizmat qilgan.

Kirish. Hech bir inson o'zi yashaydigan ko'cha, mahalla, qishloq yoki shaharning nomlanishiga bee'tibor emas. Ota-onalar o'z farzandlariga "Qayerliksan?", "Qayerda yashaysan?", "Qaysi mahalladansan?", "Qaysi ko'chada yashaysan?" degan savollarga javob berishni bolaligidan o'rgatadilar. Bu savollarga insonlar azal-azaldan javob berib kelganlar. Javob berish uchun esa har bir inson o'zi yashaydigan hududning nomini juda yaxshi bilishi lozim. Kishilar bir-biri bilan til orqali muloqotga kirishganligi uchun ham tilni ijtimoiy hodisa deb hisoblaymiz. Tilshunoslikda joy nomlari bilan shug'ullanuvchi bo'lim "Toponimiya" deb yuritiladi. "Bir joyning ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o'ylab chiqargan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o'rganadi. Toponimika yunoncha topos – joy va onoma (yoki onima) – nom so'zlaridan tarkib topgan".[1]

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Joy nomlari bilan bog'liq savollar nafaqat tilshunoslik, toponimika fani bilan shug'ullanadigan kishilarni qiziqtiradi, balki oddiy inson uchun ham bu – juda muhim sohadir. Chunki kundalik hayotimizda joy nomlari bilan bog'liq savollarga ko'p bor duch kelamiz. Texnika taraqqiy etayotgan davrda insonlarning talab va ehtiyojlariga muvofiq turli xil internet bilan bog'liq ilovalar hayotimizga kirib kelmoqda. Misol tariqasida "Geo joylashuv", "Locatsiya" va "Navigator" kabi ilovalar manzillarning nomlari, joylashgan yeri, mo'ljali haqida ma'lumotlar beradi. Bu esa, albatta, kishilarga qulayliklar yaratadi.

Mamlakatimizda barcha viloyatlar toponimlari xususida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilayotgani singari Sirdaryo viloyatining toponimiyasi to'g'risida ham bir qancha izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu say-harakatlarning natijasida yangi-yangi ilmiy adabiyotlar dunyo yuzini ko'rmoqda. Bularga T. Jamolovning "Mirzacho'l: kecha, bugun, erta", N. Mingboyevning "Mirzacho'l toponimiyasi", Pirmqul Do'st Muhammadning "Sirdaryo kecha va bugun", R. Turdiyevning "Sirdaryo chinorlari", M. Xodjiyev, S. Qudratov, B. Samadovlarning "Sirdaryo tarixi", Ixtiyor Ermatovning "Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati", B. To'ychiboyevning "Sirdaryo viloyati toponimlari" nomli bir qancha ilmiy adabiyotlar, qo'llanma va monografiyalarni keltirish mumkin. Ushbu adabiyotlarni ilmiy manbaa sifatida olib yana boshqa ilmiy maqolalar ham yaratilmoqda. Qalam urilayotgan ushbu maqolamizda Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi professori Ixtiyor Ermatovning "Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati"dan foydalangan holda viloyatdagi joy nomlarining yasashiga oid ilmiy qarashlar keltirishni maqsad qilib oldik.

Olingan natijalar va ularning tahlili



Bilamizki, o'zbek tilining boyish manbaalaridan biri bu – ichki imkoniyatidir, ya'ni so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z hosil qilish. So'z yasalishi lug'aviy ma'noning o'zgarishi natijasida paydo bo'lib, yasama so'z bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga ko'chadi. Masalan, Sirdaryo viloyatiga qarashli **Ahillik** nomli qishloqni olaylik. Bu so'zning yasalishida *ahil* – sifat so'z turkumiga oid asosga *-lik* so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilishi natijasida *ahillik* – ot so'z turkumiga oid yangi so'z hosil bo'lgan. Ushbu yasama so'z ma'lum bir hududga nom qilib berilganligi uchun **Ahillik** deya bosh harf bilan yoziladi. Sirdaryo viloyatiga qarashli joy nomlarining katta qismini yasama so'zlar tashkil etadi. O'zbek tilidagi so'z yasovchi *-goh, -iston, -liq, -loq, -ma, -oq, -zor, -lik, -li, -chi, -chilik, -iy, -kor, -la* kabi qo'shimchalar viloyatdagi joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Quyida Sirdaryo viloyatidagi tuman, qishloq, mahalla, saylgoh, bog', kanal va hatto qabriston nomlarining ham yasalishiga oid ma'lumotlarni o'rganish mumkin.

№	Asos	Qo'shimcha	Joy nomi
1	Ahil (sifat) arabcha so'z bo'lib, yaqin, inoq ma'nolarini bildiradi.	<i>-lik</i>	Ahillik. Oqoltin va Sardoba tumanlaridagi qishloq, Sirdaryo, Oqoltin, Guliston tumanlari va Guliston shaharlaridagi mahalla nomi.
2	Bir (son)	<i>-lik</i>	Birlik. Hamjihatlik, yakdillik, mushtaraklik kabi ma'nolarni bildiradi. Sardoba tumanidagi mahalla nomi.
3	Inoq (sifat) ahil holat, munosabat.	<i>-lik</i>	Inoqlik. Guliston shahridagi mahalla nomi.
4	Do'st (ot) birodar, oshna, o'rtoq ma'nolarini bildiradi.	<i>-lik</i>	Do'stlik. Boyovut, Xovos va Mirzaobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. Viloyatdagi barcha tuman va shaharlarda Do'stlik nomli mahallalar mavjud. Guliston shahri markazidan oqib o'tuvchi kanalning nomi ham Do'stlik. Sayxunobod tumanidan oqib o'tuvchi kanalning nomi ham Do'stlik. Sirdaryo va Sayxunobod tumanlaridagi qabristonlar nomi ham Do'stlik deb atalgan. [2]
5	Mangu (sifat) abadiylik, abadiyat.	<i>-lik</i>	Mangulik. Sirdaryo, Xovos va Yangiyerdagi qabriston nomi.
6	Ozod (sifat) erkinlik, hurlik ma'nolarini bildiradi.	<i>-lik</i>	Ozodlik. Boyovut tumanidagi mahalla nomi.
7	Tin (fe'l) Tinch (sifat) tinch, osoyishta holat.	<i>-ch, -lik</i>	Tinchlik. Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi aholi yashash joyi. Mirzaobod, Xovos, Boyovut va Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomi.



8	Yosh (sifat) o'smirlik, navqironlik,	-lik	Yoshlik. Mirzaobod tumanidagi qishloq.
9	Zomin (ot) Jizzax viloyati Zomin tumani	-lik	Zominlik. Sardoba tumanidagi qishloq nomi. Aholi tarkibini asosan Zomin tumanidan ko'chib kelganlar tashkil etadi.
10	Shod (sifat) shod- xurram holati, xursandchilik, sevinch, quvonch.	-lik	Shodlik. Oqoltin tumanidagi qishloq va mahalla, Sayxunobod tumani va Guliston shahridagi mahalla nomi.
11	Hikmat (ot) hikmati bor, chuqur mazmunli.	-li	Hikmatli. Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi.
12	Ibrat (ot) namuna, o'rnak.	-li	Ibratli. Guliston shahridagi mahalla nomi.
13	Moy (ot) ko'l (ot)	-li	Moyliko'l. Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi. Qishloq yonida ko'l bo'lgan, hozirda u qurib ketgan.
14	Nur (ot), kel (fe'l) yog'du, yorug', ravshan, porloq.	-li, -ajak	Nurli kelajak. Xovos tumanidagi mahalla, Mirzaobod tumanidagi massiv nomi. Nurli va kelajak so'zlarining qo'shilmasidan hosil bo'lgan.
15	Nur (ot), hayot (ot)	-li	Nurli hayot. Sirdaryo tumanidagi aholi yashash hududi. Nurli va hayot so'zlarining qo'shilmasidan hosil bo'lgan.
16	Qamish (ot) o'simlik	-li	Qamishli. Sayxunobod tumanidagi ko'l nomi. Qamish so'ziga xoslikni bildiruvchi -li affiksini qo'shish orqali yasalgan.
17	Sirg'a (ot) bezak turi.	-li	Sirg'ali. Oqoltin tumanidagi aholi yashash hududi. Toshkent shahrining sirg'ali hududidan ko'chib kelgan aholi yashaydigan joy.
18	Sir (ot), olam (ot)	-li	Sirli olam. Yangiyer shahridagi istirohat bog'i.
19	Uy/O'y (fe'l)	-uv, -li	Uyuvli/O'yuvli. Guliston tumanidagi qishloq nomi. O'zbeklarning do'rmon, qo'ng'iroq qabilalari tarkibida o'yuvli urug'i bo'lgan. [3]
20	Yog'och (ot) og'och, turk tilida ag'ach daraxt degani. Sardoba sovuq suv degan ma'noni anglatadi.	-li	Yog'ochli Sardoba. Sardoba tumani Gumbaz qishlog'ida, Toshkent-Samarqand-Buxoro shaharlarini bog'lovchi avtomagistral yo'li yoqasida joylashgan me'moriy yodgorlik. Sardoba XVI asrda o'zbek hukmdori Abdullaxon davrida bunyod etilgan bo'lib, uning Amir Temur davrida qurilishi bilan bog'liq rivoyatlar mavjud.



21	Bino (ot) inshoot, qurilish.	-kor	Binokor. Xovos tumanidagi qishloq, Yangiyer shahridagi mahalla nomi.
22	Bunyod (ot) qurilgan, mavjud.	-kor	Bunyodkor. Guliston tumanidagi aholi yashash hududi. Boyovut, Sirdaryo, Xovos tumanlari va Shirin shahridagi mahalla nomi.
23	Ijod (ot) yangilik, kashfiyot yaratmoq.	-kor	Ijodkor. Boyovut tumanidagi mahalla nomi.
24	Paxta (ot) o'simlik.	-kor	Paxtakor. Xovos va Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi. Boyovut, Xovos, Sardoba Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomi.
25	Sohib (ot) ega	-kor	Sohibkor. Xovos tumanidagi qishloq va mahalla nomi.
26	Tadbir (ot) ish,	-kor	Tadbirkor. Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. <i>Tadbirkor</i> arabcha+forscha so'z bo'lib, tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi kabi ma'nolarni bildiradi. [4]
27	Tajriba (ot) ish-faoliyat.	-kor	Tajribakor. Guliston tumanidagi mahalla nomi.
28	G'alla (ot) bug'doy, o'simlik.	-kor	G'allakor. Boyovut tumanidagi qishloq nomi. <i>G'allakor</i> – g'alla yetishtiruvchi shaxs, dehqon.
29	Sholi (ot) guruch o'simlik.	-kor	Sholikor. Sirdaryo tumanidagi qishloq va mahalla nomi.
30	Pilla (ot) ipak qurti.	-kor	Pillakor. Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi.
31	Ziyo (ot) nur, shu'la.	-kor	Ziyokor. Sirdaryo tumanidagi shaharcha nomi.
32	Anor (ot) o'simlik, meva.	-zor	Anorzor. Boyovut tumanidagi mahalla nomi.
33	Gul (ot) chaman, chechak.	-zor	Gulzor. Oqoltin tumanidagi mahalla nomi.
34	Meva (ot).	-zor	Mevazor. Guliston tumanidagi mahalla nomi.
35	Paxta (ot) g'o'za, o'simlik.	-zor	Paxtazor. Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi.
36	Sang (ot) forsha tosh ma'nosida.	-zor	Sangzor. Oqoltin tumanidagi aholi yashash hududi.
37	Terak (ot) daraxt.	-zor	Terakzor. Guliston tumanidagi mahalla nomi.
38	O'rik (ot) meva.	-zor	O'rikzor. Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi.
39	Chaman (ot) gulzor.	-zor	Chamanzor. Xovos tumanidagi mahalla va qabriston nomi.



40	Olma (ot) meva.	-zor	Olmazor. Boyovut va Oqoltin tumanlaridagi qishloq nomi. Boyovut tumanidagi bir mahalla ham Olmazor deb yuritiladi.
41	Bahor (ot) fasl	-iston	Bahoriston. Mirzaobod tumanidagi qishloq va mahalla nomi.
42	Bog' (ot) mevazor.	-iston	Bog'iston. Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi aholi yashash hududi.
43	Gul (ot) chaman, o'simlik.	-iston	Guliston. Sirdaryo viloyatining mamuriy markazi, shahar. <i>Gul</i> va forscha <i>-iston</i> (egallovchi ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha) Yashnagan, obod yer bog'-bo'stonlar makoni bo'lgan o'lka. [5]
44	Tukr (ot) millat nomi.	-iston	Turkiston. Boyovut, Guliston, Xovos tumanlaridagi qishloq. Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi.
45	Yangi (sifat), O'zbek (ot)	-iston	Yangi O'zbekiston. Mirzaobod tumanidagi mahalla nomi.
46	O'zbek (ot) millat nomi.	-iston	O'zbekiston. Guliston tumanidagi qishloq nomi.
47	O'zbek (ot), To'k (fe'l), To'kin (ot)	-iston	O'zbekiston To'kinchiligi. Xovos tumanidagi mahalla nomi.

Ushbu so'z yasovchi qo'shimchalardan tashqari viloyatda yana boshqa ko'plab joy nomlarining *-shunos, -dor, -dosh, -parvar, -ak, -v, -ul, -ki, -ma, -la, -q, -ot, -g'or, -y, -ch, -chilik* kabi qo'shimchalar yordamida yasalgan manzillar ham e'tiborga loyiq. Xususan, Mirzaobod tumanidagi **Asalchilik** va Xovos tumanidagi **To'kinchilik** deb ataluvchi aholi yashash hududi nomlarining tarkibida ham *-chilik* qo'shimchasi mavjud. Sirdaryo tumanidagi **Asalchi** mahallasi, Mirzaobod tumanidagi **Baliqchi** qishlog'i, Guliston tumanidagi qadimgi **Ko'nchi** qishlog'i, Xovos tumanidagi **Olmachi** qishlog'i nomlari tarkibida esa *-chi* qo'shimchasi yetakchilik qilgan. Guliston tumanidagi **Ishonch** nomli qishloq, Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi **Tinchlik** nomli aholi yashash hududi hamda Mirzaobod, Xovos, Boyovut va Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomlari tarkibida *ishon, tin* asoslariga *-ch* affiksi q'oshilishi natijasida *Ishonch, Tinchlik* kabi nomlar paydo bo'lgan. Viloyatdagi ba'zi joy nomlari kishini hayratga soladi. Masalan, Mirzaobod tumanidagi Gadoy qishlog'i, Mirzaobod tumanidagi To'pak qishlog'i nomlarining asosi *gado, to'p* so'zlariga *-y, -ak* affikslarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. **Qorovultepa, Mirzaqishloq, Qoraqishloq, So'fiqishloq, Xo'jaqishloq, Yangiqishloq, Zominqishloq** kabi nomlarda fonetik hodisa jarayonini kuzatish mumkin. *Qara* asosiga *-v* qo'shimchasi qo'shilishi natijasida *a* tovushi *o* ga – qarov shaklida, *qish* asosiga *-la* hamda *-q* qo'shimchasi qo'shilishi natijasida esa *a* tovushi *o* ga almashishi kuzatilmoqda.

Yangi so'zlarning yasalishi tilshunoslikda ijobiy baholanadi. So'z yasovchi qo'shimchalar tilni lug'aviy jihatdan boyituvchi manbaalardan biridir. Yuqorida ko'rib o'tgan Sirdaryo viloyatidagi joy nomlari turli xil qo'shimchalar yordamida yasalgan toponimlardir. Aslida o'zbek tilida o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalar sanoqligina: *-goh, -iston, -liq, -loq, -ma, -oq, -zor* qo'shimchalaridir. Ammo ko'rib o'tgan joy nomlarimizning orasida shaxs oti yasovchi, narsa



oti yasovchi, mavhum ot yasovchi qo'shimchalar, faoliyat jarayon oti yasovchi qo'shimchalar ham faol ishtirok etgan. Ahillik, Birlik, Inoqlik, Do'stlik, Mangulik, Ozodlik, Shodlik, Ishonch kabi joy nomlarida mavhum ot yasovchi qo'shimchalar ishtirok etgan bo'lsa, Zarshunos, Vatanparvar, Asalchi, Binokor, Paxtakor, Pillakor kabi toponimlarda shaxs oti yasovchi qo'shimchalar yangi so'zlarni hosil qilgan. Bundan tashqari joy nomlari orasida faoliyat jarayon oti yasovchi qo'shimchalar orqali yasalgan toponimlar ham talaygina. Bunga sabab shu hududda yashovchi aholi mashg'ul bo'lgan ish-faoliyat, jarayon, mehnat mahsulidir. Asalchilik, Baliqchi, Ko'nchi, Chorvador, G'allakor, Sholikor kabi joy nomlari bunga misoldir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, joy nomlari – yurtimizning boy tarixi, geografik tuzilishi, xalqimizning orzu-intilishlari, madaniy, ma'naviy, diniy-falsafiy, estetik qarashlari, ona tilini e'zozlash va uning boyliklarini asrab-avaylash usullarini o'zida mujassam etgan ulkan xazinadir. Shu o'rinda tilshunoslikni cheksiz bir ummonga o'xshatish mumkin. O'rganaman, izlanaman degan inson uchun kichik bir viloyatga oid kichik hududlarning kelib chiqish tarixi, buguni, bu nomlarning yaratilishi, uning sabablari katta-katta sirlarni ochishi mumkin.

References:

1. Qorayev S. "Toponimika". Toshkent – 2006. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 5-bet.
2. Ermatov I. "Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati". "Bookmany Print" Toshkent – 2024. 27-bet.
3. Qorayev S. "Toponimika". Toshkent – 2006. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 147-bet.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. – Toshkent, 2020. 636-bet.
5. Ermatov I. "Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati". "Bookmany Print" Toshkent – 2024. 29-bet.
6. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati (O'zbekistonning janubiy rayonlari). – Toshkent, 1988.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. – Toshkent, 2020. 435-bet.
8. Rasulova N. Ona tilidan ma'ruzalar. II kitob. "Nurafshon ziyo yog'dusi" 2008.